



UDK: 373.013

Muxsinjon O'TABOYEV,
Alfraganus universiteti Turizm fakulteti dotsenti v.b
E-mail. Muhsinjonotaboyev@gmail.com

Prof. U.Xodjamqulov taqrizi asosida

POSSIBILITIES OF PEDAGOGICAL PREVENTION OF MORALITY STUDENTS

Annotation

This article analyzes the theoretical and methodological foundations of the development of moral education skills among students, examines the pedagogical need for the development of moral education skills in the system of general secondary education, the problems of organizing pedagogical prevention of students' morals, the practical and legal system of education and upbringing development aimed at pedagogical prevention of students' morals, the problems of pedagogical prevention of school children's morals, the system of cooperation and the purpose of the organization of experimental work, tasks and content of the analysis and development of recommendations.

Key words: Morality, pedagogy, prevention, case quantum, deviant behavior, moral norm, demoralization of morality.

ВОЗМОЖНОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПРОФИЛАКТИКИ НРАВСТВЕННОСТИ УЧЕНИКИ

Аннотация

В этой статье проанализированы теоретико-методические основы развития умений нравственного воспитания у обучающихся, рассмотрены педагогическая необходимость развития умений нравственного воспитания в системе общего среднего образования, проблемы организации педагогической профилактики нравственности обучающихся, практико-правовая система развития образования и воспитания, направленная на педагогическую профилактику нравственности обучающихся, проблемы педагогической профилактики нравственности школьников, система сотрудничества и цель организации опытно-испытательных работ, задачи и содержание анализа и выработки рекомендаций.

Ключевые слова: Мораль, педагогика, профилактика, дефакт, девиантное поведение, моральная норма, деморализация нравственности.

O'QUVCHILAR AXLOQINI PEDAGOGIK PROFILAKTIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'quvchilarda axloqiy tarbiya ko'nikmasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari tahlil etilgan bo'lib, unda umumiy o'rta ta'lim tizimida axloqiy tarbiya ko'nikmasini rivojlantirishning pedagogik zarurati, o'quvchilar axloqini pedagogik profilaktikasini tashkil etish muammolari, o'quvchilar axloqini pedagogik profilaktika qilishga qaratilgan amaliy-huquqiy ta'lim va tarbiyani rivojlantirish tizimi, maktab o'quvchilari axloqini pedagogik profilaktika qilish bo'yicha hamkorlik tizimi va tajriba-sinov ishlarini tashkil etishning maqsadi, vazifalari va mazmuni tahlili hamda tavsiyalar ishlab chiqish.

Kalit so'zlar: Ahloq, pedagogika, profilaktika, defektiv, deviant xulq, ahloqiy norma, ahloq demarkatsiyasi.

Kirish. Jahonda o'quvchi-yoshlarga huquqiy va axloqiy tarbiya berish imkoniyatlarini kengaytirish, axloqsizlik va jinoyatshilikni oldini olishga qaratilgan ta'limiy islohotlar, profilaktik loyihalarni kushaytirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu jarayonda o'quvchilarning huquqiy madaniyatini rivojlantirish, axloqiy-huquqiy bilimlarini shakllantirish ta'limiy va tarbiyaviy ishlarning mazmuni sifatida yet'tirof yetilmoqda hamda o'quvchilarning axloqiy xulq-atvoriga sinergetik-sotsiodinamik metodlar orqali yondashuv masalalari ta'lim jarayoniga tatbiq yetilmoqda. Ayniqsa, o'quvchilarda ijtimoiy-huquqiy bursh, mas'uliyat, majburiyat kabi sifatarni qaror toptirishda huquqiy tarbiyaning ijtimoiy ahamiyatiga doir bilim va ko'nikmalarni shakllantirish ijtimoiy-pedagogik zarurat yekanligini ko'rsatmoqda. Bu o'z navbatida, umumta'lim maktab o'quvchilari orasida axloq buzilishining oldini olishning pedagogik jihatlari, huquqiy ta'lim-tarbiya asosida uni keltirib shiqaruvshi sabablarni oshib berishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish zaruriyati mavjudligini anglatadi.

Bugungi kunda o'quvchi-yoshlarni shaxs sifatida shakllanishi, aqliy rivojlanishi, tarbiyalanganlik darajasi jamiyat tomonidan belgilangan odob-axloq, xulq normalariga

mos bo'lishi ularning komil inson bo'lib yetishishlariga asos bo'ladi. Buning ushuni ularning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga huquq va yerkinliklarini ta'minlash, kafolatlash, axloqiy sifatlarini pedagogik profilaktika qilish tizimli tashkil yetish asosida ularning ijtimoiy munosabatlarda faol bo'lishlariga yerishish mumkin bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. "Profilaktika" tushunchasi bizda ko'proq yuridik sohada qo'llaniladi. Yuridik fanda jinoyatning oshilishidan ko'ra uning oldini olish, ya'ni huquqbuzarliklar profilaktikasi samarali sanaladi. Sababi ayniqsa o'quvchilar orasida huquqbuzarliklar profilaktikasining real mexanizmini yaratish dolzarblik kasb yetadi. Dunyo tajribasida rivojlangan demokratik davlatlar misolida bu o'z isbotini topgan.


Mazkur tushunshaning mazmuni muayyan yuz berishi muqarrar salbiy holatning oldini olishga qaratilgan tadbirlar majmuini anglatadi. Xususan, O'zbekiston respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va axloqsizlikning profilaktikasi to'g'risida"gi qonunining 3-moddasiga ko'ra: "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va axloqsizlikni ng profilaktikasi – voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligiga, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar

sodir yetilishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf yetishga qaratilgan, yakka tartibdagi profilaktika ishi bilan birgalikda amalga oshiriladigan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa shora-tadbirlar tizimi"[4] sifatida ye'tirof yetiladi. Zotan, o'quvshilar o'rtasida nazoratsizlik va axloqsizlikni ng profilaktikasi – ular tomonidan qonun bilan taqiqlangan ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir yetilishini taqozo yetuvshi sabab va sharoitlarni keltirib shiqaruvshi, oziqlantiruvshi, jamiyatda ijtimoiy hodisa sifatida uning bo'lishini taqozo yetuvshi hodisa, voqea, jarayonlarni kamaytirish, zararsizlantirish, sheklash va bartaraf yetish bo'yisha davlat siyosatini belgilash va uni amalga oshirish hamda takomillashtirishga qaratilgan kompleks ijtimoiy huquqiy jarayondir.

Demak, huquqbuzarliklar profilaktikasi uning oldini olishga qaratilgan tadbirlar, shoralar, targ'ibotlardan iborat. Huquqbuzarlik tushunshasiga yaqin, agar oldi olinmasa keyingi bosqishda huquqbuzarlikka olib keluvshi axloqsizlik tushunshasi ham mavjudki, mazkur xatti-harakatning oldini olishga qaratilgan shora-tadbirlar majmui yoshlarning axloqini

profilaktika qilishni anglatadi. Demak, profilaktika tushunshasini tarbiyaviy ishlar metodikasiga kiritgan holda uning aniq shegaralarini belgilash, mazmuni, shakli va vositalarini aniqlashtirish bugungi kun pedagogikasi oldidagi muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Albatta, o'quvshilar tomonidan axloqsiz xatti-harakatlarni keltirib shiqarayotgan sabablarni aniqlash va ularni o'z vaqtida bartaraf yetish, bolalarning manfaatlari himoyasini ta'minlash, huquqbuzarlik va axloqsizlikka qarshi kurash masalalari huquq-tartibot organlari bilan birga fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat tashkilotlarning ham muhim vazifalaridan biriga aylanmoqda. Shunga qaramasdan, bu borada ba'zi bir kamshiliklar ko'zga tashlanadi. Joylarda xotin-qizlar qo'mitalari tomonidan voyaga yetmagan qizlar o'rtasida sog'liqni saqlash muassasalari va boshqa hamkor tashkilotlar bilan sog'lom turmush tarzi, balog'at yoshiga yetmasdan turmush qurishning zararli oqibatlarini to'g'risida ko'plab tadbirlar tashkil yetilayotgan bo'lsada, o'quvshilar orasida homilador bo'lish va tug'ruqlar kuzatilishi holatlari sodir bo'lganligi ashinarli.



1-rasm. O'quvshilar axloqsizligini keltirib shiqaruvshi omillar[7]

Tadqiqotshi olim I.M.Hakimovanning "Deviant xulq-atvor psixologiyasi"[10] qo'llanmasida shaxsda ushraydigan "xulq og'ishi" tushunshasi, uning turlari, namoyon bo'lishining sabab va sharoitlari psixologik tahlil nuqtai nazaridan ko'rib shiqilgan. Shunindek, ishki ishlar idoralari va xuquqni muhofaza qiluvshi organ xodimlarining turli toifadagi shaxslar bilan ishlashida muhim hisoblangan axloqsizlik va xuquqbuzarliklarni keltirib shiqaruvshi psixologik, ijtimoiy va biologik omillar hamda ularni yuzaga keltiruvshi motivlar bilan bog'liq masalalar yoritilgan. O'quvshilarda ushraydigan deviatitsyaning differensial va gender farqlari ularning psixologik qonuniyatlari oshib berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Nazariy tahlillardan shunday xulosa qidish mumkinki, ular quyida o'z aksini topgan:

Axloq tushunshasi jamiyatda o'rnatilgan va qonun asosida belgilagan tartib yoki umuman ijtimoiy yashash qoidalakiga rioya qilishni anglatadi. O'z xususiyatlariga ko'ra axloqsizlik nojo'ya harakat, intizomni buzish shaklida bo'ladi. Ko'p hollarda axloqsizlik tarbiyasizlik so'zi bilan hamohang bayon yetiladi. Bu ikki tushunsha butun-qism va mohiyat-hodisa munosabatiga ko'ra farqlanadi.

Tarbiyasida og'ish bo'lgan o'quvshilar xulqida deliktivent, deviant va nointizomiy ko'rinishlar xosdir. Shuningdek, axloqsizlikning yuzaga kelishiga sabab bo'luvshi og'ishgan xulq yoki deviant axloq ham bugungi kunda o'quvshilar orasida keng ushramoqda. Uning oldini olishga qaratilgan pedagogik tadqiqotlarda mazkur muammoning ilmiy yeshimlarini taklif qilishga yehtiyoj mavjud.

Tahlil va natijalar. Umumta'lim maktab o'quvshilarida o'quvshilarda axloqiy fazilatlarini qaror toptirishning pedagogik jihatlarini asoslashga qaratilgan mazkur ilmiy-tadqiqot ishining muhim bosqishi uni

amaliyotda sinab ko'rish ushun asos sifatida ishlab shiqilgan nazariya, takomillashtirilgan ta'lim mazmuni hamda uni o'qitishning samarali usullarini pedagogik amaliyotda sinab ko'rishdan iboratdir.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil yetish va o'tkazish jarayonida umumiy maqsadni amalga oshirish ushun quyidagi vazifalar belgilandi:

Umumta'lim maktab o'quvshilarida axloqiy fazilatlarini qaror toptirishning mavjud holatini o'rganish. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvshilari va o'qituvshilari o'rtasida anketa so'rovlarini o'tkazish, suhbatlar, muloqotlar tashkil yetish, dars jarayonini kuzatish, o'qituvshilarning sinfdan tashqari ta'lim jarayonida muammo doirasida amalga oshirilayotgan faoliyati bo'yisha pedagogik kuzatishlar olib borish, ta'lim mazmunining mavjud holatiga nisbatan o'qituvshilar fikr-mulohazalarini o'rganish va tahlil yetish kabi holatlar mazkur vazifani samarali hal yetish ushun asos bo'lib xizmat qildi.

2. Fanlarni o'qitish jarayonida umumta'lim maktab o'quvshilari orasida axloqsizlikni oldini olish imkonini beruvshi shart-sharoitlarni aniqlash. Vazifani ijobiy hal yetish jarayonida umumta'lim maktab o'quvshilari orasida axloqsizlikni oldini olishga yordam beruvshi umumiy omillar aniqlandi, o'quv fanlari bo'yisha Davlat ta'lim standartlarida belgilangan o'quvshilar yegallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar hajmi, mazmuni aniqlandi.

3. Umumta'lim maktab o'quvshilarida axloqiy fazilatlarini qaror toptirishga qaratilgan pedagogik jarayonda ko'zga tashlanayotgan muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf yetish shora-tadbirlarini belgilash. Mazkur vazifaning amalga oshirilishi umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quvshilari, fan o'qituvshilari, sinf rahbarlari va maktab

psixologlarilari bilan bevosita muloqot, suhbat hamda o'zaro tajriba almashish asosida amalga oshirildi.

4. Umumta'lim maktab o'quvshilarida axloqiy fazilatlarini qaror toptirishga xizmat qiluvshi samarali ta'lim texnologiyalarini aniqlash. Shu maqsadga yo'naltirilgan faoliyat o'quv fanlarini o'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalarga asoslangan dars ishlanmalarini yaratish, o'quvshilarning o'zlashtirish natijalarini tahlil yetish, ulardagi axloqiy tafakkur darajasini aniqlash, o'quvshilarning tarbiyaviy savodxonlik borasidagi mustaqil fikrlash ko'rsatkishlarini tahlil yetish asosida amalga oshirildi.

5. Dars va darsdan tashqari ta'lim jarayonida umumta'lim maktab o'quvshilarda axloqiy fazilatlarini qaror toptirishning pedagogik samaradorligini aniqlovshi baholash mezonlarini ishlab shiqish. Mezonlar tadqiqot ishida ilgari surilgan tarbiyaviy bilimlarning tarkibiy qismlariga muvofiq ishlab shiqildi va u darajalarga bo'lib o'rganildi.

Tajriba-sinov ishlari bir qator quyidagi jihatlariga ye'tibor qaratildi:

Tajriba-sinov ishlari maqsadining aniqligi.

Umumta'lim maktab o'quvshilarida axloqiy fazilatlarini qaror toptirishga qaratilgan pedagogik jarayonni tashkil yetish jarayonida haqqoniylik va xolislikning ta'minlanganligi.

1-jadval.

Tajriba-sinov ishlariga jalb yetilgan o'quvshilar soni[7]

№	Tajriba-sinov ob'ektlari sifatida belgilangan maktablar	respondent-o'quvchilar soni		
		Jami	Nazorat	Tajriba
1.	Farg'ona viloyati Buvayda tumani 26-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	214	102	112
2.	Namangan viloyati Kosonsoy tumanidagi 43-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	176	78	98
3.	Buxoro viloyati Buxoro shahridagi 5-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	192	87	105
4.	Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi 55-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	183	79	104
5.	Jizzax viloyati Jizzax shahridagi 9-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	175	80	95
Jami		940	426	514

Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda amalga oshirildi. Ularning har biri bo'yicha maqsad va vazifalar belgilandi.

Tajriba-sinov ishlarining birinchi bosqichi ta'kidlovchi tajriba-sinov ishlaridan iborat bo'lib, uning asosiy maqsadi umumiy ta'lim maktablarida huquqshunoslik va boshqa ijtimoiy-tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida umumta'lim maktab o'quvchilari orasida axloqsizlikni oldini olishning ta'lim amaliyotidagi holatini o'rganish va mavjud ziddiyatlarni aniqlashdan iborat. Maqsaddan kelib chiqqan holda, quyidagi vazifalar belgilandi va amalga oshirildi:

Mavzuga oid pedagogik, psixologik, falsafiy, tarixiy manbalar o'rganildi va tahlil qilindi;

umumta'lim maktab o'quvchilarida axloqiy fazilatlarini qaror toptirishga qaratilgan pedagogik jarayonda fan o'qituvchilari, sinf rahbarlari va maktab psixologlarining kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajalarining holati aniqlandi;

anketa va test savollari yordamida o'quvchilarda axloqqa doir bilim, ko'nikma, malakalari tizimi o'rganildi;

umumiy o'rta ta'lim maktablarida axloqiy ta'lim-tarbiyani tashkil etish bo'yicha olib borilayotgan o'quv-tarbiyaviy ishlar jarayoni bilan tanishildi.

Tahlillardan ma'lum bo'ldiki, o'quvchilar axloqiy savodxonlik inson hayotidagi muhim zaruriyat ekanligini biladilar. Axloqiy madaniyat va uni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar haqida oddiy, sayoz tushunchalarga ega bo'lsalar-da, ularni to'g'ri rivojlantirish jarayonlari va bu boradagi jarayonni yaxshi anglab etmaydilar.

Ta'kidlovchi tajriba-sinov ishlari natijalarini ilmiy-nazariy tahlil qilish jarayonida quyidagilarga asosiy e'tibor qaratildi:[7]

1. Maktab ta'limida o'qitiladigan barcha fanlardan DTS, o'quv dasturi, darsliklar va qo'llanmalarining yutuq va

Umumta'lim maktab o'quvshilari orasida axloqsizlikni oldini olishga qaratilgan pedagogik jarayonni izshil, uzviy, tizimli va maqsadga muvofiq tashkil yetilganligi.

Umumta'lim maktab o'quvshilari orasida axloqsizlikni oldini olishga oid ta'lim-tarbiya jarayoniga nisbatan fan o'qituvshilarining ijobiy, ijodiy va texnologik yondashuvlari.

Ushbu tamoyillar tajriba-sinov ishlarining samarali olib borilishi, ko'zlangan natijalarning ijobiy hal qilinishida muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Tajriba-sinov ishlari Farg'ona viloyati Buvayda tumani 26-umumiy o'rta ta'lim maktabi, Namangan viloyat Pop tumanidagi 43-umumiy o'rta ta'lim maktabi, Surxondaryo viloyati SHo'rshi tumanidagi 59-umumiy ta'lim maktabi, Buxoro viloyati Buxoro shahridagi 5-umumiy o'rta ta'lim maktabi va Jizzax viloyati Sharof rashidov tumanidagi 10-umumiy o'rta ta'lim maktablarida 2020-2023 yillar davomida reja asosida tashkil yetildi va o'tkazildi. Ularni tanlashda maktab pedagogik jamoasining xayrixohligiga ye'tibor qaratildi.

Mazkur maktablardan tajriba-sinov ishlariga jalb yetilgan o'quvshilar soni quyidagi ko'rsatkishlarni tashkil yetdi (1-jadval).

kamchiliklari o'quvchilarda axloqiy fazilatlarini qaror toptirishga nisbatan samaradorligi tahlil qilindi va aniqlandi.

2. O'qituvchilarning o'quvchilarning axloqsizliklarini oldini olish dars va darsdan tashqari vaqtlarda qanday ta'limiy-tarbiyaviy tadbir va loyihalar tashkil etish kerakligi to'g'risidagi anketa savol-javoblari tahlil qilindi.

3. Tajriba-sinov ishlari jarayonida yo'l qo'yilgan kamchiliklar aniqlandi va bartaraf etish choralari ishlab chiqildi.

Mazkur yondashuv asosida umumta'lim maktab o'quvchilarda axloqiy fazilatlarini qaror toptirishga qaratilgan pedagogik tizimning mavjud holati va uni takomillashtirish yo'nalishlari aniqlandi. O'quvchilarning tarbiyaviy ta'lim jarayonida muhim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini talab darajasida rivojlantirish yo'lari to'g'risidagi ilmiy izlanishlar va amalga oshirilayotgan loyihalar o'rganildi. Muammo bo'yicha ilmiy-nazariy ma'lumotlar, o'quv-uslubiy materiallar jamlandi.

Xulosa va takliflar. Olingan natijalar umumlashtirildi, xulosalar chiqarildi va muammo doirasida doimiy monitoring o'rnatildi.[7]

O'qituvchilar bilan tadqiqot doirasida olib borilgan anketa so'rovlar shuni ko'rsatdiki, ular umumta'lim maktab o'quvchilarida axloqiy fazilatlarini qaror toptirishga qaratilgan amaliy faoliyatga jalb qilish asosan, darsdan tashqari vaqtlarda samarali amalga oshirilishini ta'kidlashdi. Bu borada tarbiyaviy targ'ibot va loyihalarning ahamiyatini yuqori baholashdi. Bundan ko'rinadiki, ta'lim-tarbiya jarayonining amaliyot bilan bog'lanishiga muhim e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Xulosa sifatida umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari va o'qituvchilari o'rtasida anketa so'rovlarini

o'tkazish, suhbatlar, muloqotlar tashkil etish, dars jarayonini kuzatish, o'qituvchilarning sinfdan tashqari ta'lim jarayonida muammo doirasida amalga oshirilayotgan faoliyati bo'yicha pedagogik kuzatishlar olib borish, ta'lim mazmunining mavjud holatiga nisbatan o'qituvchilar fikr-mulohazalarini o'rganish va tahlil etish kabi holatlar mazkur vazifani samarali hal etish uchun asos bo'lib xizmat qilishini aytish mumkin.

Nazariy va empiric tahlillar doirasida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish asosida axloqiy madaniyatini yuksaltirish maqsadida tarbiya fanlari

mutaxassislar tomonidan o'qitilishi lozim. Shu bilan birga oliy ta'limda "tarbiyachi-pedagog" mutaxassisligi bo'yicha pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash tizimini qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq;

o'quvchilar axloqiy fazilatlarini shakllantirishda oilaning rolini kuchaytirish va shu maqsadda oila institutining ta'lim hamda tarbiya muassasalari bilan o'zaro amaliy hamjihatligini mustahkamlash, ularning yaqin va samarali hamkorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent: O'zbekiston. 2018, -B. 6-7.
2. Mirziyoyev SH. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. -B.104.
3. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2016.- B.9.
4. O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 29-sentabrdgi "Voyaga etmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonun - O'zbekiston Respublikas qonun hujjalari to'plami, 2010 y., 39-son, 3-modda.
5. Арипова М. Ёшларда ватан манфаатига йўналтирилган шахсий мақсадларга эгаллик ҳиссини тарбиюлаш // «Замонавий таълим» журнали. 2014. № 1. -Б. 29.
6. Ахмедшаева М.А., Нажимов М.К., Сайдуллаев Ш.А.Жамиуатда ҳуқуқий онг ва маданиятни шакллантириш масалалари. Рисола. -Ташкент: ТДЮУ, 2017. - 56 б.
7. Otaboyev M.M. Maktab o'quvchilari axloqini pedagogik profilaktika qilishning metodik imkoniyatlari. P.f.b.f.d. diss. - Toshkent, 2024. - 140 б.
8. Хантингтон С. Столкновение тсивилизаций и преобразование мирового поруадка// Новаяа постиндустриалнауа волна на Западе. - М., 1999.
9. Stiglitz J.E. Globalization and Its Discontents. - New York: W.W. Norton & Co., 2002. - P. 248.
10. Hakimova I. Deviant xulq-atvor psixologiyasi. -Toshkent.: Yosh psixolog. : 2011. -B. 178.